



BUYON BRITANIYADA TRED-YUNIONLAR FAOLIYATI VA LEYBORISTLAR PARTIYASI TASHKIL TOPISHIDAGI ROLI

Xoliqova Ra'noxon Abdumuxtorovna

Andijon Davlat Universiteti tarix fakulteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6337512>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

tred-yunionlar, agrar, burjuaziya, sotsialistlar, federatsiya, ishchilar aristokratiyasi, rezolutsiya

Bir necha yuz yillar davomida "Jahon ustaxonasi" va "Dengizlar hukmdori" bo'lgan Angliya XIX asr oxirlariga kelib, qator sohalarda ustun mavqei AQSH va Germaniyaga topshirishga majbur bo'ladi. AQSH shu davrda o'zining ichki bozoridan Angliyani siqib chiqaribgina qolmay, Germaniya bilan birgalikda Angliya bozorlarini ham arzon, ham sifatli mahsulotlar bilan to'ldira boshladilar. Angliya sanoat monopoliyasini qo'ldan ketishi va qator sanoat sohasidagi birinchi o'rnidan mahrum bo'lishi, shuningdek, XIX asrning 70-90 yillardagi mamlakatning qishloq xo'jaligidagi uzoq davom etgan agrar inqirozi tufayli rivojlanishi pasaya borgan davrda tred-yunionlar faoliyati kuchaya bordi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilmiy adabiyotlar va manbaalarga tayangan holda Buyuk Britaniyaning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ishchilar faoliyati aks ettirilgan. Tred – yunionlarning o'z haq – huquqlarini himoya qilish uchun olib borgan kurashlari, harakatlari yo'nalishlari maqsadlari va Leyboristlar partiyasiga asos solinishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Angliyada ishchilar o'z moddiy ahvolini yaxshilash uchun kurashni kuchaytirib bordilar. Bu kurashda ishchilarga tred-yunionlar rahbarlik qilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Britaniya tred-yunionlari Yevropaning eng birinchi tashkil topgan kasaba uyushmasi bo'lib ular ishchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan edi. Tred-yunionlar sotsialistlar e'tibor bermagan muhim hayotiy muammolarga e'tibor qaratib, ularni hal qilish uchun kurash olib borganlar. XIX asr oxirida kasaba uyushmalari a'zolari orasida juda kuchli qobiliyat va malakaga ega bo'lgan ishchilar bo'lib, ular boshqa qo'shni davlatlar davlatlar ishchilari bilan aloqa o'rnatgan edilar. Angliyada Sotsial-demokratik Federatsiya faoliyat yuritayotgan bo'lsada



uning a'zolari soni ozchilikni tashkil etar va bu ishchilar manfaatlarini himoya qilish mushkulligini anglatar edi. Ushbu tashkilot ishchilar kurashi masalasida ham hech qanday aniq strategik maqsadga ham ega emas edi. Xatto SDFning ba'zi rahbarlari ham ishchilarning ish tashlashlariga qarshi bo'lib, bunday harakatlarni zararli, natijasiz hisoblar edilar. Natijada ishchilar bu tashkilotga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatida edilar.

80-yillar oxirlarida Angliyada ish tashlashlar keskin kuchayib, bu kurashga dastlab uyushgan, malakali ishchilar-mashinasozlar, quruvchilar, to'qimachilik sanoatining turli yo'nalishlarida ishlovchilar, ko'mir qazuvchilar, mashinistlar tortildilar. Bu harakatlar Angliya ishchilarining mustaqil siyosat yurgizish uchun tashviqotni kuchaytirishga juda qulay sharoit yaratib berdi. 1890-yillardagi ish tashlashlar va ishchilarning birdamlik bilan harakat qilishlari natijasida ayrim kompaniyalar ishchilarning 8 soatlik ish kuni, smenalar sonini kamaytirish va ish haqini oshirish kabi talablarini bajarishga majbur bo'ladilar. Ish tashlashlar davomida boshqa kasbdagi ishchilar o'z mablag'lari bilan ish tashlovchilarga yordam berdilar va boshqa davlatlar ishchilari o'z yordamlari bilan ularni qo'llab quvatladilar. Natijada 1888 yil tred-yunionlar a'zolari soni 750 ming 1892 yil 150 ming kishiga etdi. Yana bir muhim jihat shundaki, kasaba uyushmalari avval kichkina sex doirasida ishchilar qabul qilgan bo'lsa, XIX asr oxirlaridan bir korxonaga yoki bir butun sanoat tarmog'i tegishli zavodlarda ishlovchi barcha ishchilar qabul qilina boshlandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida burjuaziya ishchilar malakasiga ham jiddiy e'tibor qaratdi. XX asr boshlarida "ishchilar aristokratiyasi" deb nom olgan yuqori malakali ishchilar, Buyuk Britaniyada

umumiy ishchilar soninig uchdan biri, mashinasozlik va kemasozlikda asosiy qismini tashkil etar edi. Bu ishchilar boshqa malakasiz yoki kam malakali ishchilarga nisbatan juda yuqori maosh bilan ta'minlangan edilar. Malakali ishchilarga yuqori ish haqi to'lash oqibatida malakasiz ishchilar ahvoli keskin pasaya bordi. Ishchilar turmush darajasining pasayishiga narxlarining tobora o'sib borayotgani ham sabab bo'ldi. O'sib borayotgan ishsizlik, ishchilar daromadining qisqarib borishi, xalq ommasining qashshoqlanishi ning kuchayishi tred-yunionlar faoliyatini rivojlantirib, parlamentda ishchilar manfaatlarini himoya qila oladigan partiya tuzilishiga zaruriyatni oshirdi.

1990 yilda 1.955.700 a'zoga ega tred-yunionlar 1913 yilda 3.987.100 a'zoga ko'paygan bo'lganligiga qaramay, Angliya parlamentidagi liberallar va konservatorlar partiyalari vakillari kamdan-kam holatlarda ishchilar manfaatlarini himoya qiladigan qonunlar qabul qilar edilar. Bu partiyalar ko'p holatlarda yuqori ingliz burjuaziyasi va kompaniya egalari manfaatlarini ko'zlab qonunlar ishlab chiqqanlar. Natijada parlamentda ishchilar manfaatlarini himoya qilish uchun alohida partiya tuzish fikri ishchilar tomonidan qo'llab quvvatlandi. 1990 yilda asos solingan Leyboristlar partiyasi mana shu vazifani bajarishi kerak edi, shuning uchun ham partiya g'oyalari sotsial-demokratik federatsiyadan ko'ra kasaba uyushmalariga yaqin edi. XX asr boshlarida bu partiya rahbarlari James Keir Hardie (1856-1915) David Shackleton (1863-1938) Artur Henderson (1863-1935) lar kasaba uyushmalaridan edi. James Hardie va Robert Smillie (1857-1940) lar ko'mir koni ishchilari bo'lgan. Leyboristlar partiyasining tuzilganligi mamlakat ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynadi. Biroq rahbarlik R. Makdonold qo'lida bo'lgan davrda partiya faoliyati faqat



parlament tor doiralari bilan cheklanib, faqatgina liberallar fikrlarini qo'llab quvvatlab, ishchilar manfaatlari uchun hech qanday qonunlar qabul qilishga harakat qilinmadi. Shu vaziyatda Leyboristlar partiyasi Leberallar partiyasi o'ng qanotiga aylandi.

Leyboristlar partiya asosi bo'lgan ishchilar yetakchilari kasaba uyushmalariga to'liq bog'liq ekanligini tushunib, bu aloqalarni mustahkamlash zarurligini anglab yetgan edilar. R.Makdonold 1904 yil tred-yunionlar (kasaba-uyushmalari) kongresidagi do'stona hisobot berish uchrashuvida quyidagi so'zlarni aytgan edi. "Ishchilar vakillik qo'mitasi tred-yunionlar kongresiga singil ham, uka ham emas, balki uning bolasidir. Tred-yunionlar partiya faoliyatini moliyaviy jihatdan ham ta'minlab kelgan. 1906 yilda umumiy saylovlarda 186 nomzoddan 137 tasi tred-yunionlar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. 1906 va 1910 yillardagi Buyuk Britaniya saylovlarida Buyuk Britaniya ko'mirchilar federatsiyasi saylov nomzodlarini sarf harajatlarini to'lab berishga homiylardan biri bo'lgan. 1910 bu federatsiya 49 ta nomzod uchun o'rtacha 1.225 per boshqa uyushmalar 54 nomzodga o'rtacha 696 per va boshqa jamiyatlar o'zlarining 31 nomzodiga 467 per mablag' to'lab berishgan. Tred-yunionlarning umumiy siyosiy sarf harajatlari mahalliy saylovlar bilan hisoblaganda 150.000 dan ko'proq edi. Tred-yunionlarning bunday katta sarf harajatlari sarflanishiga qaramay, ba'zi leyboristlar nomzodlari Leberallar yoki Konservatorlar yordamiga tayanib tred-yunionlar huquqlarini poymol qilar edilar.

Leyboristlar partiyasini asosiy asoschilaridan bo'lgan yana bir tashkilot ishchilar vakillik qo'mitasi (LRC) 1900 yil saylovlarda qatnashadigan ishchilar vakillari qo'mitasini tuzadi. 1899 yil ishchilar vakillik kongressi Tred-yunionlar kongress rezolutsiyasiga binoan 1900 yil fevral kunlari

Londonda bo'lib o'tadi. Bu konfrensiyada 66 ta kasaba uyushma vakillari ishtirok etadi Konferensiyadan maqsad keyingi parlamentga yanada ko'proq ishchilar a'zolarini saylash yo'llarini izlash maqsadida tashkil etiladi. Bu qo'mitaning umumiy saylovlarda qatnashgan 50 nomzodidan 29 tasi 1906 yilgi saylovlarda 1910 yanvar oyidagi saylovlarda 78 nomzodidan 40 tasi 1910 yil dekabr oyi saylovlarida 56 nomzoddan 40 tasi g'alaba qozongan Buyuk Britaniyada ishchilar partiyasi hisoblangan Leyboristlar partiyasi kurashning inqilobiy yo'lidan emas, parlamentga o'z vakillarrini saylash orqali ishchilar manfaatlarini himoya qilishni tog'ri deb hisoblaganlar.

I jahon urushi arafasida Buyuk Britaniyada xarbiy sarf harajatlar keskin oshishi iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarining pasayishi oqibatida zarur iste'mol mahsulotlari narxi ko'tariladi. Bu esa birinchi navbatda ishchilarning yashash sharoitlarini og'irlashtiradi. Natijada ishchilar ish tashlashlari boshlanadi. 1911 yilning iyun oyida boshlangan eng yirik ish tashlash 6 hafta davom etib avgust oyida nihoyasiga yetgan. Yakunda ko'mir qazuvchilarning talablari hukumat va kompaniya egalari tomonidan qondirilib, hukumat "Ish haqining minimum tog'risida qonunni qabul qilishga majbur bo'ladi. Ushbu qonunga ko'ra ish tashlashlar vaqtida korxonalar ko'rgan zararining tred-yunionlar hisobidan undirilishi ta'qiqlandi. Shu davrgacha ish tashlashlar ishchilar ziyon keltirayotgan, ish tashlashlar oqibatlari ish taslovchilar uchun samarasiz bo'lishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, ushbu qonundan so'ng ishchilar zarar ko'rmaydigan bo'ldilar.

Ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisa tufayli jabrlanganlarga korxonaga egalari tomonidan nafaqa tayyinlash tartibining joriy etilganligi ishchilar harakatining eng yaxshi natijalaridan biri edi.



I jahon urushi arafasida Britaniya hukmron doiralari ichki siyosiy muammolarni yumshatishga urinishi ishchilarga bir qancha talablarni hukumat tomonidan inobatga olgan holda qonunlar qabul qilish orqali ularga yon berishga majbur bo'ldi. Konchilar ish tashlashlari natijasida ular uchun 8 soatlik ish kuni belgilanib, kasallik va ishsizlik sababli sug'urta to'lovi joriy etildi.

Xulosa shuki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buyuk Britaniya tred-yunionlar faoliyatining kuchayib borishi natijasida hukumat ular uchun foydali va zarur bo'lgan qonunlar qabul qilishga majbur bo'ldi. Ushbu davrda o'z partiyasiga asos solgan ishchilar ijtimoiy ahamiyatga ega yutuqlarni qo'lga kirita oldilar va bu davr ishchilar uchun eng samarali davr bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. Yangi davr 1900-1918 yillar. 2-qism Toshkent. 2013y
2. Artur Henderson, "Labour and Education" The New Highway, 1, 31 March 1920
3. David Howell, British vorkers and Independent Labour Party 1888-1906, Manchester. 1983
4. B.C. Roberts. The trade Union Congress; 1868-1921, London 1958
5. Chris Wrigley, "Churchill and Trade Unions", Transactions of the Royal Historical Society, 6th Series, 2001